# XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2022 - yil 5 - iyul VI-45-125-8-108-K/22 Oltinsoy tuman hokimligi

## Oltinsoy tumandagi mavjud ayrim geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida"gi O'RQ-303-son qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022- yil 17-iyundagi 18-01/156-sonli yig‘ilish bayonini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi raisi A.Djumayevning tumandagi ayrim Geografik ob'ektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi doimiy komissiyaga bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 17-iyundagi 18-01/156-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

3. Tuman bo‘yicha berilgan georgafik obyektlar (nomsiz ko‘chalar) mahallalar kesimida nomlash va qayta nomlash bo‘yicha berilgan takliflar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanda geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha mavjud geografik obyektlar (nomsiz ko‘chalar)ning nomlash bo‘yicha berilgan takliflar Respublika Kadastr agentligi ekspertiza komissiyasi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilganligi inobatga olinib, tasdiqlash maqsadida xalq

deputatlari tuman Kengashi qarori asosida davlat reestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

5. Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, yoshlar siyosati va sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Raxmanov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Tuman hokimi** **A.T.Djumayev**

Xalq deputatlari Oltinsoy tuman
Kengashining
2022 yil 5 iyuldagi
VI-45-125-8-108-K/22-son qaroriga
1-ilova

# Tumanda mavjud nomsiz ko‘chalarni nomlash bo‘yicha berilgan nomlarni Respublika Kadastr agentlgi tomonidan ekspertizadan o‘tkazish maqsadida berilgan takliflar ro‘yxati

| № | Gegrafik obeyktning turi | Joylashgan o‘rni | Geografik obyektning amaldagi nomi | Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif | Izoh: |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1. | **Ko‘cha** | “ Ovchi” MFY | Nomsiz | Ali Qushchi | Ali Qushchi (1403, Samarqand — 1474, Istanbul) — falakiyotshunos va riyoziyotchi olim, Ulug‘bek ilmiy maktabining atoqli namoyandalaridan biri, uning yaqin shogirdi. Amir Temur qarorgohi boshlig‘ining o‘g‘li. Ulug‘bek saroyida qarchig‘aylar boqqani uchun uni "Qushchi" deyishgan. Ali Qushchi boshlang‘ich ma’lumotni Samarqandda oladi |
| 2 | **Ko‘cha** | “ Ovchi” MFY | Nomsiz | Binafsha | 1.Ushbu ko‘chada ko‘cha atroflaridagi hovlilarda binafshalr o‘sishi niyat qilinib, ushbu nom taklifi berildi |
| 3 | **Ko‘cha** | “ Ovchi” MFY | Nomsiz | Alpomish | Ushbu ko‘chada oilalarda aplkelbat hamda alpomishsifat yoshlarning ko‘pligi sababli ushbu nom taklifi berildi |
| 4 | **Ko‘cha** | “ Ovchi” MFY | Nomsiz | Birdamlik | Ushbu ko‘chada oilalarda birdamlik xislati ko‘pligi sababli uchun ushbu nom taklifi berildi |
| 5 | **Ko‘cha** | “ Ovchi” MFY | Nomsiz | Nuroniylar | 1.Ushbu ko‘chada ziyoli nuroniylarning ko‘pligi sababli ushbu nom taklifi berildi |
| 6 | **Ko‘cha** | “ Ovchi” MFY | Nomsiz | Yuksalish | 1.Ushbu ko‘chada insonlar tomonidan obodonchilik va yuklsalish jarayonlari ortib borayotganligi sababli ushbu nom taklifi berildi |
| 7 | **Ko‘cha** | “ Ovchi” MFY | Nomsiz | To‘yona | Ushbu hududda ko‘plab to‘y va hashamlar ko‘p bo‘lishi yaxshi niyat qilinib, ushbu nom taklifi berildi. |

| № | Gegrafik obeyktning turi | Joylashgan o‘rni | Geografik obyektning amaldagi nomi | Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif | Izoh: |
|---|---|---|---|---|---|
| 8 | **Ko‘cha** | “ Ovchi” MFY | Nomsiz | Behbudiy | **Mahmudxo‘ja Behbudiy ibn Behbudxo‘ja**) (20-Yanvar 1875 Samarqand — 25-Mart 1919 Qarshi) dramaturg, noshir, din va jamoat arbobi, jadidchilik harakati yetakchilaridan biri. U Yassaviy avlodidan. 18 yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi, mufti darajasiga ko‘tariladi. Behbudiy haj safarida bo‘lgan chog‘ida Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan (1899–1900). Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. |
| 9 | **Ko‘cha** | “ Ovchi” MFY | Nomsiz | Said Ahmad | Said-Ahmad -1920-yilning 10-iyunida Toshkent shahrining Samarqand darvoza mahallasida tug‘ilgan. Uning bolaligi Elbek, Oybek, G‘afur G‘ulom singari adiblar davrasida o‘tdi. Tabiatan qiziquvchan, tinib-tinchimas Said Ahmad adabiyotga kirib kelguncha juda ko‘p sohalarda o‘zini sinab ko‘rdi: agitplakatlar yozdi, artist bo‘lishga urinib ko‘rdi, doktorlik maktabida o‘qidi, qurilish texnikumida tahsil oldi, rassomlik maktabiga qatnadi, mashhur fotochi Rensonga shogird tushdi, gazetalarga xabarlar yozdi. |
| 10 | **Ko‘cha** | “ Ovchi” MFY | Nomsiz | Sobir Rahimov | **Sobir Umar o‘g‘li Rahimov** (25-yanvar 1902-yil — 26-mart 1945-yil)[1] — harbiy arbob, general-mayor (1943), millati — qozoq. 1925-yilda Bokuda Birlashgan harbiy maktabni va 1930-yilda komandirlar sostavi malakasini oshirish kursini tugatgan. 1932—38-yillarda va 1940-yildan armiyada. 1941-yildan frontda. Bosh shtab harbiy akademiyasining jadallashtirilgan kursini tugatgan (1943). Ikkinchi jahon urushida Janubiy frontdagi motorlashtirilgan polk komandiri, Zakavkazye frontida o‘qchi diviziya komandiri.. |